**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

G.Sh.Rixsiyeva

________________

2025-yil "___" ________

# ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARNING METODOLOGIK ASPEKTLARI FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

**Ta’lim sohasi:** 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar

**Ta’lim mutaxassislik:** 770310201 - Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar

**Toshkent–2025**

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti direktori: ________ G.T.Arifjanov

"Xalqaro munosabatlar" kafedrasi mudiri: ________ S.M.Bo'ronov

ARM boshlig'i ________ Yuldasheva M.M.

| Fan/modul kodi<br>ZXMMA1106 | O‘quv yili<br>2025/2026 | | Semestr<br>1 | ECTS — Kreditlar<br>6 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | | **Ta’lim tili**<br>O‘zbek/rus | | **Haftadagi dars soatiari**<br>6 | |
| 1. | **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Zamonaviy xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari** | | 72 | 108 | 180 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – magistrant talabalarga zamonaviy xalqaro munosabatlar metodologiyasi usullarini o‘rgatishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - Zamonaviy xalqaro munosabatlarni tadqiq etish nazariyalarini o‘rganish, ilmiy tadqiqot metodologiyasini tadqiq etish, dissertatsiya yozish tartib-qoidalarini o‘zlashtirish, siyosiy tahlil usullarini o‘rganish, xalqaro tashkilotlarning o‘rnini o‘rganish, ilmiy maqola yozish tartib-qoidalarini o‘zlashtirish, ilmiy mummo.

**Xorij tajribasiga muvoqligi** – Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro‘yxatga kiruvchi King’s College London (ARWU 53) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

https://www.kcl.ac.uk/abroad/module-options/module?id=96bd65ef-d9d0-419c-8eee-ccd3c962f9ef

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Xalqaro munosabatlar tushunchasi va mazmun-mohiyati.**

Xalqaro siyosat, jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tushunchasi, klassik va zamonaviy xalqaro munosabatlarning mazmun-mohiyati haqida ma’lumot beriladi.

**2-mavzu. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining shakllanish bosqichlari**

Vestfal modeli, Xalqaro munosabatlarning Yalta-Potsdam, Sovuq urushdan keying xalqaro munosabatlar tizimi va yangi dunyo tartibotining shakllanish jarayonlari tushuntirib beriladi.

**3-mavzu. Xalqaro munosabatlarning zamonaviy nazariyalari.**

“Yagona dunyo”, “Ikki dunyo”, “Tarix intihosi”, “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi”, “Yevroosiyo Bolqoni”, “Orientalizm va Oksidentalizm”,

| | |
|---|---|
| | "G'arbning o'limi", Neomedievalizm konsepsiyasi va zamonaviy xalqaro munosabatlarda postpandemiya qarashlari tahlil etiladi.<br>**4-mavzu. Xalqaro munosabatlar sohasidagi siyosiy tadqiqotlar**<br>Fan, nazariya, konsepsiya va paradigma tushunchalari, xalqaro munosabatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar, siyosiy tadqiqotlarning o'ziga xos murakkab jihatlari, ilmiy tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish masalalari o'rganiladi.<br>**5-mavzu. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti**<br>BMTning tashkil topishi, uning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni, BMTning asosiy organlari, BMT Xavfsizlik Kengashini isloh qilish masalalari, global zamonaviy muammolarni hal etish jarayonlarida BMT oldidagi dolzarb vazifalar haqida ma'lumotlar beriladi.<br>**6-mavzu. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Shanxay hamkorlik tashkiloti**<br>ShHTning tashkil topishi, tashkilotning maqsad va vazifalari, tashkilotning asosiy organlari, ShHTning a'zolar safi kengayishi, tashkilot oldida turgan dolzarb vazifalari haqida tahlil etiladi.<br>**7-mavzu. Zamonaviy xalqaro munosabatlar bo'yicha ilmiy maqola yozish usullari**<br>Ilmiy maqolaning ahamiyati, maqola yozishning IMRAD talablari, uni rasmiylashtirish va nufuzli jurnallarda chop etish qonun-qoidalari haqida tushunchalar beriladi.<br>**8-mavzu. Xalqaro munosabatlar sohasida ilmiy tadqiqot o'tkazish usullari**<br>Ilmiy tadqiqot olib borish, uning mashaqqatlari, ilmiy asoslar keltirish, adabiyotlar bilan ishlash, umumilmiy va siyosiy tadqiqotlar usullaridan foydalanish qoidalari haqida ma'lumotlar beriladi.<br>**9-mavzu. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda siyosiy tahlil usullari**<br>Tizimli tahlil, Event, Content, SWOT, qiyosiy-siyosiy tahlil, Infografik tahlil, tarixiylik, Root Cause, intervyu tahlili va boshqa tahlil usulari o'rganiladi.<br>**10-mavzu. Xalqaro munosabatlar sohasida ilmiy daraja va ilmiy unvon olish usullari**<br>Siyosiy fanlar bo'yicha doktorantura imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish, ilmiy darajaga erishlsh dissertatsiya yozish tartib-qoidalari, ilmiy unvon olish shartlari haqida ma'lumotlar beriladi.<br>**11-mavzu. Hozirgi dunyo tartiboti bo'yicha ilmiy yondashuvlar**<br>Hozirgi dunyo tartiboti, "Bo'lingan dunyoni bo'lishga urinishlar", dunyo tartibotiga ta'sir etuvchl omillar, yirik davlatlarning jahon siyosatidagi |

qarashlari, taniqli siyosatshunos olimlarning dunyo tartibi bo'yicha ilmiy qarashlari o'rganiladi.

**12-mavzu. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda O'zbekistonning ishtiroki**

O'zbekistonning zamonaviy pragmatik tashqi siyosati, xalqaro tashabbuslari, nufuzli xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki, O'zbekiston Prezidentining turli xalqaro minbarlardagi chiqishlari tahlil etiladi.

## III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "***Zamonaviy xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari***" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

***Zamonaviy xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari*** *fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Xalqaro munosabatlar metodologiyasi
2. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi transformatsiyasi
3. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning nazariyalari
4. Hozirgi davrda xalqaro siyosiy tadqiqotlar
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti oldida turgan dolzarb muammolar
6. Zamonaviy dunyoda Shanxay hamkorlik tashkiloti
7. Ilmiy maqola yozish va uni nufuzli jurnallarda chop etish
8. Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash va yozish usullari
9. Qiyosiy-siyosiy tahlil, tizimli tahlil, Event, Content, SWOT, Root Cause, Infografik tahlil usullari
10. Ilmiy daraja va ilmiy unvon olish tartib-qoidalari
11. Hozirgi dunyo tartibotini shakllantirishdagi ilmiy qarashlar

O'zbekistonning xalqaro siyosat maydonidagi tashabbuslari

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l

| | |
|---|---|
| | qo‘ymasligi;<br>- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilgan vazifalami o‘z vaqtida bajarishi.<br>*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*<br>- mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (esse) tayyorlash;<br>- badiiy-ijodiy ishni bajarish;<br>- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;<br>- aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;<br>- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta’rif va xulosalarni berish;<br>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;<br>- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;<br>“***Zamonaviy xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari***” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:<br>1. Xalqaro munosabatlarning Vestfal modeli<br>2. Xalqaro munosabatlarning Yalta-Potsdam tizimi<br>3. Fan, nazariya, konsepsiya va paradigma tushunchalari<br>4. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda "Yagona dunyo" konsepsiyasi<br>5. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda "Ikki dunyo" konsepsiyasi<br>6. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda "Yevroosiyo Bolqoni" konsepsiyasi<br>7. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda "Oriyentalizm va Oksidentalizm" konsepsiyalari<br>8. "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasi va yangi dunyo tartiboti<br>9. "G'arbning o'limi" konsepsiyasi<br>10. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda xalqaro tashkilotlar (BMT misolida)<br>11. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda xalqaro tashkilotlar (ShHT misolida)<br>12. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda postpandemiya qarashlari<br>13. "Tarix intihosi" konsepsiyasi va uning tandiqiy aspektlari<br>14. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda qiyosiy-siyosiy tahlil<br>15. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda tizimli tahlil<br>16. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Event va Content tahlil<br>17. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda SWOT tahlil<br>18. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda infografik tahlil<br>19. Zamonaviy xalqaro munosabatlar sohasida ilmiy daraja va ilmiy unvon olish<br>20. O'zbekistonning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi pragmatik tashqi siyosati |
| **3.** | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>***Talaba bilishi kerak:***<br>• Zamonaviy xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari fanining maqsad va vazifalari, xalqaro munosabatlarning zamonaviy nazariyalari va |

| | |
|---|---|
| | turli atamalarning tasnifi haqida ***tasavvurga ega bo'lishi***;<br>• Xalqaro munosabatlar sohasida tadqiqot mavzusini tanlash va mavzuga doir muammoni aniqlashtirish va ularni hal qilish usullariga oid ma'lumotlarni tahlil qilish hamda boshqa metodlardan foydalangan holda tadqiqot ishlarining dolzarbligini asoslash va zamonaviy axborot resurs ma'lumotlarini tahlil qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;<br>• Zamonaviy xalqaro munosabatlar tadqiqot xususiyatlariga oid ilmiy adabiyotlarni tavsiflash, ilmiy tadqiqot institutlari va tahliliy markazlar materiallaridan foydalana olishi va amaliyotda qo'llay olish ***malakalariga ega bo'lishi kerak*** |
| **4.** | **VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish. |
| **6.** | **VII. ASOSIY VA QO'ShIMChA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Основы теории международных отношений: Опыт ИМЭМО в 1970-е годы / Кол. авторов под ред. акад. Н. Н. Иноземцева. — М.: Издательство «Аспект Пресс», 2022. – 623 с.<br>2. Цыганков П.А. Теория международных отношений. — М.: Гардарики, 2003. – 590 с.<br>3. Kenneth W.Abbott. Modern International Relations Theory: A Prospectus for International Lawyers. Arizona State University. – 408 p.<br>4. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Низоми.<br>5. Ҳасанов У.А. Халкаро муносабатлар назариясига кириш. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2007. – 145 б.<br>6. Фармонов Р., Жўраев Қ. Халкаро муносабатлар тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013. – 175 б.<br>7. Жумаев Р.З., Ёвқочев Ш.А. Сиёсий технологиялар. (Ўқув қўлланма) – Т.: ТДШИ, 2018. – 247 б.<br>8. Умарова Н. Сиёсий технологиялар. (Ўқув қўлланма) – Т.: Академия, 2007. –147 б.<br>Косимова Д. Менежмент назарияси. (Дарслик). – Т.: Тафаккур бўстони, |

2011. – 336 б.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

9. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2022. – 440 б.
10. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Т.4. Т.: Ўзбекистон, 2020. – 450 б.
11. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг – иши ҳам улуғ, ҳаёти ҳам ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.
12. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Т.2. – 508 б.
13. Бжезинский З. Великая шахматная доска. [пер. с анг. О. Уральской]. – Москва. Издателсьство АСТ, 2019. – 384 с.
14. Frencis Fukuma. The End of History and the Last Man. New York, The Free Press. 1992. – 418 p.
15. Samuel P.Huntington. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York, Simon & Schuster. 1996. – 194 p.
16. Chris Brown, Kristen Ainley. Understanding International Relations. Palgrave Macmillan, Third Edition. 2005. – 313 p.
17. Laumulin M. The Geopolitics of XXI Century in Central Asia. – Almaty: KazISS, 2007.
18. Dhaka A. South Asia and Central Asia: Geopolitical dynamics. – Jaipur: Mangal Deep Publications, 2001.
19. Bo‘ronov S. O‘zbekiston geosiyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2021. – 194 b.
20. Бўронов С.М. Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати. – Т.: EFFECT-D, 2021. – 204 б.

**Scopusdan maqolalar**

21. Raffaella A. Del Sarto & Eduard Soler i Lecha. Regionalism and Alliances in the Middle East, 2011-2021: From a “Flash in the Pan” of Regional Cooperation to Liquid Alliances. 05 Jan 2024. – P. 1447-1473. https://www.tandfonline.com/toc/fgeo20/current
22. Aaron Bramson, Kevin Hoefman, (2024). Diplomatic Relations in a Virtual World. Political Analysis / Volume 30 / Issue 2 / April 2022. pp. 214-235.https://www.cambridge.org/core/journals/political-analysis/listing?q=geopolitics&productId=EEF1D4438BAB8498B2A647F9DBC47AA7&context=%2Fjournals%2Fpolitical-analysis&type=
23. Walt, S. M. (2005). The relationship between theory and policy in international relations. Annu. Rev. Polit. Sci., 8(1), 23-48. https://doi.org/10.1146/annurev.polisci.7.012003.104904

**Axborot manbalari**

| | |
|---|---|
| | 24. http://www.press-service.uz (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati).<br>25. http://www.mfa.uz (O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi matbuot xizmati).<br>26. https://mift.uz (Министерство инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан)<br>27. http://www.lex.uz (O‘zbekiston Respuhlikasi qonun hujjatlari milliy bazasi). |
| **7.** | Fanning o‘quv dasturi “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025-yil 18-iyundagi 21-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil 28-iyundagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>S.M.Bo‘ronov − TDShU, “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>S.Ubaydullayeva − “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar doktori<br>R.G‘oziyev – “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |